



(dastlabki ma'lumot)


I S T E ' M O L B O Z O R I

2018 yil yanvar-mart

Sirdaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 %ga oshdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 5,5 %ni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 92,9 %ni tashkil qildi.


2018 yil yanvar-mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Guliston shahri (39,2 foiz), Sirdaryo (11,5 foiz), Guliston (8,7 foiz) va

Sardoba (8,6 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovarlar aylanmasi aholi jon boshiga 1,2 foizga oshib, 701,7 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-mart oylarida 560,5 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (2546,8 ming so'm), Yangiyer shahri (1096,7 ming so'm) va Sardoba tumanida (777,5 ming so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 8,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 6,7 %ga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,5 %ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	701,8	101,2
Guliston shahar	2546,8	82,0
Shirin shahar	396,8	95,2
Yangier shahar	1096,7	100,5
Boyovut tumani	245,3	95,2
Guliston tumani	720,5	96,9
Mirzaobod tumani	524,6	100,8
Oqoltin tumani	377,2	94,7
Sardoba tumani	777,5	100,8
Sayxunobod tumani	308,5	100,8
Sirdaryo tumani	534,2	100,4
Xovos tumani	225,0	92,8

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 %ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidan 94,5 %ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning umumiyl tovar aylanmasi hajmidan 51,3 mld. so'mni uyushmagan savdo tashkil qiladi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 8,9 %ni tashkil etdi.




Chakana savdo tovar aylanmasi umumiyl hajmida eng katta ulush Guliston tumanida 99,6 %, Sardoba tumanida 99,6 %, Xovos tumanida 98,9 %, Oqoltin tumanida 98,7 %, Mirzaobod tumanida 97,5 % va eng past ulush Guliston shahrida 90,2 % qayd etildi.

2018 yil yanvar-mart oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-mart oylarida ulgurji tovar aylanmasi 261,1 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 115,3 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'payishi kuzatilgan hududlar quyidagilardan iborat: Xovos tumani 274,0 %, Oqoltin tumani 134,8 %, Guliston tumani 133,2 %.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 7,1 %ga oshdi va 121,8 mlrd. so'mni tashkil qildi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 61,8 %ni tashkil qildi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: S.Xaitmamatov
(0371) 230-86-16